



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.01.2024 yildagi 11-son

Кучга кириш санаси

09.01.2024

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

OLIJ TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING HAQ TO'LANADIGAN MALAKA AMALIYOTINI TASHKIL ETISH TARTIBI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son [qarori](#) ijrosini ta'minlash hamda talabalarining nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash darajasi va sifatini oshirish, shuningdek, amaliyot o'tash davrida qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasini transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning [8-bandida](#) oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida tashkil etiladigan qisqa muddatli maqsadli ishlab chiqarish amaliyotlarini "haq to'lanadigan amaliyot" mexanizmi asosida tashkil etish belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin:

haq to'lanadigan amaliyotni tanlov asosida tashkil etish;

talabalarining haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha tanlovda ishtirok etish tartibi va shartlarini belgilash;

haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va amaliyotga rahbarlik qilish;

amaliyot bo'yicha mehnat munosabatlarini belgilash va moliyalashtirish hamda monitoringini yuritish.

3. Kadrlar buyurtmachilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari 2024/2025 o'quv yilidan boshlab, o'z ichki ehtiyojlaridan kelib chiqib, yillik rejaga asosan:

oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim shaklidan qat'i nazar, talabalarining tegishli ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) bo'yicha haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotlari tarmoq (soha)ning muayyan tashkilotlari va korxonalarida shartnoma asosida tizimli ravishda o'tkazilishini hamda ishlab chiqarish amaliyotining reja jadvali va dasturlari to'liq hajmda bajarilishini ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni belgilasin;

ishlab chiqarish amaliyotini o'tash davrida talabalarga amaliyotchi maqomini bersin va ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularni mavjud bo'sh ish o'rinlari (davlat organi boshqaruv lavozimlari bundan mustasno) hisobiga vaqtincha ish bilan ta'minlash choralari ko'rsin;

ishlab chiqarish amaliyotini o'tash davrida amaliyotchi talabalarga ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, yetarli shart-sharoitlar (shaxsiy himoya vositalari, maxsus ovqat va boshqalar) hamda shartnoma asosida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan zarur hollarda talabalar yashashi uchun vaqtincha turar joylar bilan ta'minlash va qabul qiluvchi tashkilotdan tayinlangan amaliyot rahbarlarini mehnat qonunchiligiga muvofiq moddiy rag'batlantirish choralari ko'rsin;

ishlab chiqarish amaliyotini namunalari o'tagan talabalarni o'qishni tamomlaganlaridan so'ng ushbu tashkilotlarning o'zida yoki ularning hududiy bo'linmalarida ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, ish bilan ta'minlashga tavsiya etsin;

talabalar mehnatiga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda haq to'lashni nazarda tutsin.

4. Belgilansinki, mazkur qarorga muvofiq ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liq xarajatlar ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari K.X. Karimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2024-yil 8-yanvar,
11-son

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-
yanvardagi 11-son qaroriga

ILOVA

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining (keyingi o'rinlarda — talabalar) iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom harbiy va harbiylashtirilgan oliy ta'lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyoti (keyingi o'rinlarda — amaliyot) — kasbiy malakaga va ish tajribasiga ega bo'lish maqsadida amalga oshiriladigan hamda talabani bakalavriat ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasiga muvofiq ish beruvchida mavjud bo'lgan bo'sh (vakant) o'ringa ishga qabul qilishni nazarda tutuvchi kasb tayyorgarligiga oid o'quv jarayonining amaliy qismi;

amaliyotni tashkil qilish to'g'risidagi shartnoma — amaliyot o'tash muddatiga va amaliyotga rahbarlik qiluvchi shaxs biriktirilgan holda, amaliyot o'tovchi va ish beruvchi o'rtasida tuziladigan muddatli mehnat shartnomasi;

amaliyotni o'tash dasturi — oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) o'quv rejalarida belgilangan talabalar malakaviy amaliyot muddatlariga mos ravishda ishlab chiqilgan hamda tarmoq korxonasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan dastur;

Maxsus komissiya — amaliyotni o'tash uchun talabalar o'rtasida tanlov o'tkazish hamda ushbu jarayonni muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) tomonidan uning hududiy boshqarmalarida tashkil etiladigan tuzilma;

tarmoq korxonasi — ushbu Nizomga muvofiq talabalarning amaliyot o'tashlari tashkil etiladigan davlat organi va tashkiloti, shuningdek, davlat ishtirokidagi boshqa tashkilot;

transkript — ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat;

oliy ta'lim tashkilotidan amaliyot rahbari — talabalar amaliyotiga mas'ul etib belgilangan oliy ta'lim tashkilotining tegishli kafedra professor-o'qituvchisi;

qabul qiluvchi tashkilotdan amaliyot rahbari — zimmasiga talaba tomonidan amaliyotni o'tash dasturida belgilangan topshiriqlar bajarilishini nazorat qilish, ularni amaliy ko'nikmalarga o'rgatish, olingan bilimlarni oliy ta'lim tashkilotining amaliyot rahbari bilan birgalikda baholash uchun mas'ul bo'lgan tarmoq korxonasi xodimi.

3. Amaliyot bir oydan uch oygacha bo'lgan davr mobaynida o'quv rejasida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

4. Amaliyot mazkur Nizomga 1-ilovadagi sxemaga muvofiq tashkil etiladi.

2-bob. Maxsus komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi

5. Maxsus komissiya tanlov o'tkazilishidan kamida bir oy oldin Vazirlik tomonidan tuziladi.

Maxsus komissiya o'z yo'nalishida kamida 2 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan yuqori malakali (turli vazirlik, idoralar, ilmiy va ilmiy-tadqiqot muassasalaridan ham kelishuv asosida jalb etilishi mumkin) kamida 7 nafar (toq sonli) a'zodan iborat tarkibda tuziladi.

Maxsus komissiya tarkibining 2 nafar a'zosi tegishli tarmoq korxonalari mutaxassisleri orasidan jalb qilinadi. Maxsus komissiyaga raislik qilish hududiy boshqarma rahbariga yuklanadi.

Bunda Maxsus komissiya raisi zarur hollarda, tor ixtisoslashuvdagi qo'shimcha mutaxassislarni (shu jumladan, ishlab chiqarish tashkilotlari mutaxassislari) amaliyot dasturi va taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish jarayoniga jalb qilishi mumkin.

6. Maxsus komissiya yig'ilishi unda uning a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi.

Yig'ilishni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, Maxsus komissiyaning yig'ilishi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

Maxsus komissiyaning a'zolari o'z yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

7. Maxsus komissiya yig'ilishida qabul qilingan qaror yig'ilish bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma Maxsus komissiya a'zolari orasidan tanlab olingan kotib tomonidan imzolanadi hamda yig'ilishga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi.

3-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi

8. Amaliyotni tashkil etish maqsadida Vazirlik tomonidan talabalar o'rtasida har yili kamida bir marotaba tanlov o'tkaziladi.

9. Vazirlik tomonidan har yili tanlovni tashkil etish bo'yicha hududlar, sohalar va oliy ta'lim tashkilotlari kesimida amaliyot o'tash uchun 500 ta o'rin ajratiladi.

Bunda Toshkent shahri uchun — 45 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar uchun — 35 tadan o'rin nazarda tutiladi.

Ajratilgan o'rinlardan tashqari talabalar uchun tashkil etiladigan amaliyot tarmoq korxonalari tomonidan moliyalashtirilishi mumkin.

10. Vazirlik tanlov boshlanishidan kamida bir oy oldin o'z rasmiy veb-saytida tanlov to'g'risida e'lon beradi.

E'londa arizalarni shakllantirish, ro'yxatdan o'tkazish va topshirish tartibi, muddati hamda shartlari ko'rsatiladi.

Tanlovga arizalar bir oy davomida qabul qilinadi.

11. Tanlovda ishtirok etish uchun talaba arizani shaxsan o'zi, pochta aloqa vositalari orqali yoki elektron shaklda o'zi ta'lim olayotgan oliy ta'lim tashkilotiga topshiradi.

12. Tanlovda qatnashishning talablari va shartlari quyidagilardan iborat:

talaba bitiruvchi bosqichda tahsil olayotgan bo'lishi;

talabaning ta'lim yo'nalishi (yoki mutaxassisligi) tarmoq korxonasidagi faoliyat yo'nalishiga mos bo'lishi;

talaba O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lishi.

13. Oliy ta'lim tashkiloti tanlovda ishtirok etish uchun ariza bergan talabalar to'g'risidagi ma'lumotlarni (talabaning ma'lumotnoma-obyektivkasi va transkripti, talaba amaliyotini tashkil etish ish rejasi, amaliyotni o'tash dasturi va tarmoq korxonasining taklif xati) yo'llanma xati bilan Maxsus komissiyaga 5 ish kunida taqdim etadi.

Amaliyotni o'tash dasturi ular ta'lim olayotgan oliy ta'lim tashkilotining kengashi tomonidan tasdiqlangan va tarmoq korxonasi bilan kelishilgan bo'lishi lozim.

14. Maxsus komissiya oliy ta'lim tashkiloti tomonidan yo'llanma xati bilan taqdim etilgan arizalarni kelib tushgan kundan boshlab 5 ish kuni davomida ko'rib chiqadi.

Maxsus komissiya talabani tanlovda ishtirok etishi yoki tanlovda ishtirok etishini rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

15. Yo'llanma xati bilan taqdim etilgan arizani rad qilish uchun quyidagilar asos bo'ladi:
ushbu Nizomning 13-bandida ko'zda tutilgan hujjatlarni taqdim qilmaslik (to'liq bo'lmagan hajmda taqdim qilish);

hujjatlarni taqdim etish muddatlarining buzilishi.

Maxsus komissiya tegishli qaror qabul qilgandan so'ng 2 ish kunida talaba ta'lim olayotgan oliy ta'lim tashkilotiga qabul qilingan qarorni yuboradi.

Rad qilingan arizalar talabalar tomonidan kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng 5 kun muddat davomida qayta taqdim etilishi mumkin.

4-bob. Tanlov hujjatlarini Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqish va tanlab olish tartibi

16. Tanlov hujjatlari ularni qabul qilish yakunlangandan so'ng 10 ish kuni davomida Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

17. Maxsus komissiya tomonidan mazkur Nizomga 2-ilovaga muvofiq shakldagi talaba amaliyotini tashkil etish ish rejasi himoyasi (taqdimot ko'rinishida) o'tkazilib, 20 kun ichida yakuniy qaror qabul qilinadi.

18. Taqdimot quyidagi 100 ballik mezon asosida baholanadi:
amaliy ko'nikmani shakllantirishga yo'naltirilganligi — 40 ballgacha;
amaliyotning mamlakat fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi — 30 ballgacha;
amaliyotdan kutilayotgan natijalarning samaradorligi — 30 ballgacha.

19. Ajratilgan o'rinlarga muvofiq talabalar to'plangan ballar ketma-ketligi asosida tanlab olinadi.

Teng ball to'plagan talabalar ichidan ustuvorlik o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi (transkript bo'yicha) yuqori bo'lgan talabaga beriladi.

Tanlov natijalari Maxsus komissiya bayoni bilan rasmiylashtiriladi.

20. Tanlov natijalari yuzasidan yakuniy qaror qabul qilingan kundan boshlab 10 ish kuni davomida tanlov natijalari bo'yicha ma'lumot Internet jahon axborot tarmog'i va Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi hamda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri buyrug'i qabul qilingandan so'ng tanlovdan o'tgan talabalar amaliyotga yuboriladi.

21. Tanlov natijalaridan norozi bo'lgan talaba natijalar e'lon qilingan kundan boshlab o'n besh kalendar kun ichida Maxsus komissiyaga apellyatsiya berish huquqiga ega. Apellyatsiya shikoyati yozma ravishda taqdim etiladi. Vazirlikda tegishli mutaxassislardan tuzilgan Apellyatsiya komissiyasi bir hafta muddatda kiritilgan apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqadi va ikki kun muddatda talabgorga qabul qilingan qaror haqida yozma ravishda xabar beradi.

5-bob. Amaliyotni tashkil etish

22. Amaliyotni tashkil etish uchun oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan amaliyot o'tash muddati va joyi, mas'ul shaxslar, amaliyot o'taydigan talabalar va amaliyot bo'yicha rahbarlar ro'yxati tasdiqlanadi.

23. Majburiy tibbiy ko'rikdan o'tish talab qilinadigan ishlarni o'z ichiga olgan amaliyotni tashkil etishda talabalar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

24. I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun amaliyot o'tash ularning individual imkoniyatlari va sog'lig'ining holatini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

25. Amaliyot davomida talabalarga yetarli ko'nikma va malakalar shakllantirish maqsadida ish joyini (shtat lavozimini) o'zgartirishga ruxsat etiladi.

26. Amaliyot o'taydigan talabaning ish vaqti davomiyligi xodimlarning mazkur toifasi uchun belgilangan ish vaqti normasidan ortiqcha belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

27. Amaliyot davomida talaba oliy ta'lim tashkiloti tomonidan berilgan amaliyot kundaligini yuritadi.

Amaliyot kundaligida kunlik yoki haftalik bajarilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Kundalik tarmoq korxonasidagi mas'ul rahbarning imzosi bilan tasdiqlanadi.

28. Amaliyot o'tash uchun yuborilgan talaba turar joy bilan talabani yuborgan oliy ta'lim tashkiloti yoki tarmoq korxonasi tomonidan ta'minlanishi mumkin.

29. Oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) amaliyot o'tash jarayonida tarmoq korxonasi bilan birgalikda talabaning xavfsizligi bo'yicha zarur choralar ko'rilishini ta'minlaydi.

30. Amaliyot o'tash davrida talabaga tarmoq korxonasidagi tegishli mehnatni muhofaza qilish qoidalari va ichki mehnat tartibi qoidalari, shuningdek, amalda bo'lgan boshqa hujjatlar tatbiq qilinadi.

31. Amaliyot bo'yicha ishlar oliy ta'lim tashkilotining tegishli kafedra mudiri va fakultet dekani yoki oliy ta'lim tashkilotining amaliyot masalalari bilan shug'ullanish majburiyati yuklangan tarkibiy bo'linmasi bilan hamkorlikda muvofiqlashtiriladi.

6-bob. Amaliyotga rahbarlik qilish

32. Oliy ta'lim tashkilotidan biriktirilgan amaliyot rahbari amaliyot davomida talaba tomonidan amaliyot dasturining o'z vaqtida bajarilishini nazorat qiladi va zarur hollarda unga amaliy yordam ko'rsatadi.

33. Oliy ta'lim tashkilotidan biriktirilgan amaliyot rahbari:

talabani amaliyot o'tash joyiga taqsimlashda ishtirok etadi;

talabani amaliyot kundaligi bilan ta'minlaydi;

talaba amaliyotiga umumiy rahbarlik qiladi;

talabaga zarur ko'rsatmalar beradi;

talabaning amaliyot o'tash joyiga yetib borishi va qaytishini nazorat qiladi;

qabul qiluvchi tashkilotdan amaliyot rahbari bilan birgalikda amaliyot o'tash holati bo'yicha muntazam axborot almashgan holda faoliyat yuritadi;

talabaga amaliyot o'tash dasturini bajarish bo'yicha uslubiy yordam beradi;

zarur hollarda, amaliyot o'tash joylariga borish orqali amaliyot o'tash tartibiga talaba tomonidan rioya qilinishi va amaliyot o'tash dasturi bajarilishini nazorat qiladi;

amaliyot o'tashni takomillashtirish yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini oliy ta'lim tashkiloti kengashida ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

34. Tarmoq korxonasi rahbari:

amaliyotni tashkil etish bo'yicha buyruq (qaror) qabul qiladi hamda malakali va tajribali mutaxassislar orasidan amaliyot rahbarini tayinlaydi;

amaliyot o'tash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi.

35. Qabul qiluvchi tashkilotdan amaliyot rahbari:

talabaning mehnat va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha maslahat beradi hamda uning ish natijalarini muntazam ravishda baholab boradi;

talabani tarmoq korxonasi faoliyat yo'nalishlari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

talabaga amaliyotni o'tash dasturiga taalluqli zarur materiallardan foydalanishga sharoit yaratadi;

talabaga amaliyot o'tash dasturida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha zarur maslahat va ko'rsatmalar beradi;

talaba tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va amaliyot kundaligining yuritilishini doimiy nazorat qilib boradi;

oliy ta'lim tashkilotidan biriktirilgan amaliyot rahbari bilan amaliyot o'tash holati bo'yicha muntazam axborot almashadi;

oliy ta'lim tashkilotidan biriktirilgan amaliyot rahbari yoki oliy ta'lim tashkiloti rektorini (filial direktori) talabaning amaliyot o'tash uchun kelmayotganligi yoki u tomonidan amaliyot o'tash dasturi bajarilmayotganligi yoxud mehnat intizomi buzilayotganligi haqida xabardor qiladi.

36. Qabul qiluvchi tashkilotdan biriktirilgan amaliyot rahbari talabadan tegishli ish o'rni bo'yicha xodim bajarishi lozim bo'lgan funktsiya va vazifalarni talab etishga haqli.

7-bob. Amaliyot bo'yicha mehnat munosabatlarini tashkil etish

37. Talaba bilan muddatli mehnat shartnomasini tuzishda talabaning tegishli kasbiy faoliyat yo'nalishi bo'yicha nazariy tayyorgarlik darajasi, oliy ta'lim tashkilotidan biriktirilgan amaliyot rahbarining tavsiyasi hisobga olinadi.

38. Amaliyotning birinchi kunida tarmoq korxonasining vakolatli xodimi har bir talabaga mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi masalalari bo'yicha alohida ko'rsatmalar berishi shart.

39. Muddatli mehnat shartnomasi asosida tarmoq korxonasi talaba amaliyotini o'tashi uchun buyruq qabul qiladi.

40. Talaba bilan muddatli mehnat shartnomasi mehnat qonunchiligida belgilangan asoslar va tartibga ko'ra bekor qilinadi.

41. Talabaning amaliyot o'tashi uchun sinov muddati belgilanmaydi.

42. Talabalarni ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb etishga, shuningdek, ishlanmaydigan bayram va dam olish kunlarida ishlatishga yo'l qo'yilmaydi.

43. Talabalarining ish joyi amaliyotning barcha bosqichlarida tarmoq korxonasi xodimlarining ish joylariga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak.

8-bob. Amaliyotni moliyalashtirish va uning monitoringi

44. G'olib talabalarining amaliyoti bo'yicha xarajatlar Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan oliy ta'lim tashkiloti, tarmoq korxonasi, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va amaliyot o'taydigan talaba o'rtasida amaliyotni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tuzilgan shartnoma asosida Maxsus komissiya tomonidan yakuniy qaror qabul qilingandan so'ng 15 ish kuni davomida qoplanadi.

Bunda talabaga bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida ish haqi va unga hisoblangan ijtimoiy soliq Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan shartnomaga muvofiq tarmoq korxonasining talabnomasiga ko'ra uning tegishli hisobraqamiga o'tkaziladi.

Tarmoq korxonasi o'z mablag'lari hisobidan amaliyot o'tayotgan talabani qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirishi mumkin.

45. Talabalarining amaliyot natijalari hisoboti oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) tomonidan tasdiqlangan holda kengashda muhokama bo'yicha yig'ilish bayonnomasidan ko'chirma va ajratilgan mablag'larning sarflanganligi bo'yicha hisobot bilan birgalikda Vazirlikka taqdim etiladi.

9-bob. Yakunlovchi qoida

46. Mazkur Nizom talabalarini buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining
iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida
haq to'lanadigan ishlab chiqarish

amaliyotini tashkil etish tartibi

to’g’risidagi nizomga

1-ILOVA

Amaliyotni tashkil etish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Vazirlik)	Hududiy boshqarmalarda Maxsus komissiya tuzadi.	Tanlov boshlanishidan kamida bir oy oldin
2-bosqich	Vazirlik	Hududlar, sohalar, oliy ta’lim tashkilotlari kesimida amaliyot o’tash uchun o’rinlarni ajratadi hamda tanlov to’g’risida veb-saytda e’lon beradi.	Tanlov boshlanishidan bir oy oldin
3-bosqich	Talaba	Tanlovda ishtirok etish uchun arizani o’zi ta’lim olayotgan oliy ta’lim tashkilotiga tegishli hujjatlari bilan pochta aloqa vositalari orqali yoki elektron shaklda taqdim etadi.	Tanlov boshlanganidan so’ng bir oy muddatda
4-bosqich	Oliy ta’lim tashkiloti	Tanlovda ishtirok etish uchun ariza bergan talabalar to’g’risidagi ma’lumotlarni yo’llanma xati bilan Maxsus komissiyaga taqdim etadi.	Ariza taqdim etilgandan so’ng 5 ish kun davomida
5-bosqich	Maxsus komissiya	Yo’llanma xati bilan taqdim etilgan arizalarni ko’rib chiqadi hamda tegishli qarorni qabul qiladi.	Ariza kelib tushgan kundan boshlab 5 ish kuni davomida
6-bosqich	Maxsus komissiya	Qabul qilingan hujjatlarni ko’rib chiqadi.	Hujjatlar qabuli yakunlangandan so’ng 10 ish kuni davomida
7-bosqich	Maxsus komissiya	Talabalarning ish rejasi himoyasini o’tkazadi hamda tanlov bo’yicha yakuniy qaror qabul qiladi.	20 ish kuni davomida
8-bosqich	Vazirlik	Tanlov g’oliblari haqida Internet jahon axborot tarmog’ida va o’z veb-saytida e’lon qiladi. Tanlovdan o’tgan talabalarni amaliyotga yuboradi.	Yakuniy qaror qabul qilingan kundan boshlab 10 ish kuni davomida

9-bosqich	Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	Talabalarning amaliyoti bo'yicha xarajatlarni qoplab beradi.	Yakuniy qaror qabul qilingandan so'ng 15 ish kuni davomida
-----------	---	--	--

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)

2-ILOVA

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish

ISH REJASI

T/r	Familiyasi, ismi, otasining ismi	Oliy ta'lim tashkilotining nomi	Amaliyotning maqsad va vazifalari	Amaliyot o'tkaziladigan tashkilotlar	Amaliyot davomiyligi	Fan yo'nalishi	Kutilayotgan natijalar
1.							
2.							
3.							
...							

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2024-y., 09/24/11/0011-son)



Tezkor va qulay onlayn mikroqarz

100 mln

so'mgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha

Kredit muddati: 2-48 oygacha

